

ANDIJON VILOYATI TOG‘OLDI VA TOG‘ ANTROPOGEN LANDSHAFTLARINING TABAQALANISHI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI EKOLOGIK HOLATI

Yuldashev Abbas Abdusattor o'g'li

Andijon davlat universiteti Geografiya
yo‘nalishi magistranti

E-mail: yuldashevabbosbek134@gmail.com

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada Andijon viloyati tog‘oldi va tog‘ landshaftlarining kelib chiqish sabablari, tog‘oldi va tog‘ landshaftlarining tabaqalanishi va bugungi kundagi Andijon viloyati tog‘oldi va tog‘ landshaftlaridagi tuproqlarning ekologik xolati bo‘yicha batafsil ma'lumotlar berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Andijon viloyati, tog‘, tog‘oldi, tabaqalanish, landshaft, Farg‘ona, aholi punktlari, ekologik holat, vodiy, tog‘-kon, sanoat.*

***Аннотация.** В статье даны подробные сведения о происхождении предгорных и горных ландшафтов Андижанской области, стратификации предгорных и горных ландшафтов, современном экологическом состоянии почв предгорных и горных ландшафтов Андижанской области.*

***Ключевые слова:** Андижанская область, горы, предгорья, стратификация, ландшафт, Фергана, населенные пункты, экологическая ситуация, долина, горнодобывающая промышленность.*

***Annotation.** The article provides detailed information on the origin of foothill and mountain landscapes of Andijan region, stratification of foothill and mountain landscapes, current ecological state of soils of foothill and mountain landscapes of Andijan region.*

***Key words:** Andijan region, mountains, foothills, stratification, landscape, Fergana, settlements, ecological situation, valley, mining industry.*

KIRISH

Aholi sonining ko‘payib borishi natijasida Farg‘ona vodiysidagi barcha tog‘oldi va tog‘landshaftlari madaniylashgan landshaft xususiyatlariga ega bo‘lib bormoqda. Xususan Andijon viloyati tog‘oldi va tog‘ hududlaridan turli maqsadlarda foydalanish davom etmoqda, jumladan, chorvachilik uchun yaylovlar sifatida, ayrim qishloq xo‘jalik ekinlarini yetishtirish va yangi aholi punktlarini tashkil qilish uchun suv chiqarib o‘zlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda [8]. Bu jarayon hanuzgacha davom etayotgan bo‘lib, mazkur hududlarda insonlarning xo‘jalik faoliyati, ayniqsa qishloq xo‘jaligi, landshaft komplekslari tarkibida sezilarli o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Hududlar miqyosida ro‘y berayotgan bu antropogen o‘zgarishlar natijasida shakllangan landshaftlar tabiiy xususiyatlarga mos tarzda rivojlanadi va mahalliy ekologik sharoitlarga uyg‘unlashgan holda shakllanadi [7].

ASOSIY QISM

Bu qayta o'zlashtirish jarayonlari, ayniqsa qishloq xo'jaligida, tuproq va suv resurslarini intensiv ishlatish, eroziya va tuproq unumdorligining o'zgarishiga olib kelib, tabiiy landshaftlarning antropogen landshaftlarga aylanish jarayonini tezlashtiradi. Natijada, landshaftning ekologik va iqtisodiy funksiyalari bir-biriga bog'liq holda rivojlanadi [1].

Andijon viloyati tog' va tog'oldi landshaftlari o'zgarishi quyidagi yo'nalishlarda sodir bo'ladi: relyefning o'zgarishi, tuproqda chirindi miqdorining kamayishi, agroirrigatsion yotqiziqlarning vujudga kelishi, tuproq qoplaminin yuvilishi, landshaftlarning ifloslanishi, injener-geografik jarayonlarning rivojlanishi va hokazolar [9].

Yolg'iz turgan antropogen tepaliklar qadimdan aholining zich joylashganligidan dalolat beradi. Hozirgi kunda aholining eng zich joylashgan hududi tog'oldi hududining soylar atrofi hududlari bo'lib turli darajadagi yo'llar juda ko'p. Tog'oldi landshaftlarining quyi qismi drenaj zovurlari va sug'orish inshootlari ko'plab barpo etilgan joylardir. Sug'oriladigan to'q tusli bo'z tuproqlar o'zlashtirilishining dastlabki yillarida tuproq tarkibida chirindi miqdorining kamayib borishi kuzatilgan bo'lsa, keyinchalik inson xo'jalik faoliyatining ijobiy ta'siri natijasida ularning ko'paya borishi aniqlangan.

Tog' va tog'oldi landshaftlariga dehqonchilikning ta'siri natijasida, avvalo, agroirrigatsion yotqiziqlarning shakllanishi va qalinlashuvi, sug'orish tizimlarining barpo etilishi, qishloqlar va shaharlarning paydo bo'lishi, yo'llar qurilishi kabi jarayonlar tabiiy landshaft komplekslarini o'zgartirib, madaniy geokomplekslarning shakllanishiga olib keldi [3]. Bu jarayonlar landshaft komplekslari va ularning tuzilishida sezilarli o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Natijada, turli seliteb, qishloq xo'jaligi, suv xo'jaligi, doimiy va degradatsiyalangan landshaft sinflari paydo bo'ldi.

Shu bilan birga, tog'oldi landshaftlarining sug'orma dehqonchilik ta'sirida jiddiy o'zgarishi bir qator geoekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Mintaqada jarliklar, suffozion eroziya, o'ralar, tabiiy tuproq va o'simlik qoplamasining degradatsiyasi, sho'rlanish jarayonining kuchayishi kabi salbiy holatlar kuzatilmoqda [4]. Bu ekologik muammolar hududning tabiiy resurslariga va uning ekologik barqarorligiga jiddiy xavf tug'dirmoqda. Sug'orishdagi ehtiyotsizlik, sug'orish inshootlaridan noto'g'ri, nooqilona foydalanilganligi oqibatida hududlarda ko'plab buzilgan landshaft tiplari paydo bo'lmoqda. Tog' va tog'oldi landshaft komplekslarining o'zgarishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi qishloq xo'jaligining ikkinchi asosiy tarmog'i bu chorvachilikdir. Mintaqada chorvachilik asosan sut-go'sht va jun-go'sht yo'nalishlarida rivojlangan. Chorvachilik uchun ajratilgan maydonlar, odatda, yuqori tog'oldi landshaftlarida

joylashgan bo‘lib, bu hududlar sug‘orma dehqonchilik uchun yetarli darajada qulay emas. Shu sababli, bu maydonlarda uzoq vaqt davomida chorva hayvonlarini boqish o‘simlik qoplaminig siyraklashuvi va ba‘zi o‘simlik turlarining yo‘qolishiga olib kelgan. Bu jarayonlar ikkilamchi tabiiy holatlarga, xususan, tuproqning yuvilishi va mikrorelyefning o‘zgarishiga sabab bo‘lmoqda. Ushbu salbiy oqibatlarining asosiy sababi yaylovlardan belgilangan massivlarga bo‘lgan holda foydalanmaslik va chorva hayvonlarining nazoratsiz boqilishi bilan bog‘liq.

Hudud tabiiy landshaftlari o‘rnida keyingi vaqtlarda yo‘l landshaft komplekslari vujudga kela boshladi. Yo‘l landshaftlari Tog‘oldi hududlari bo‘yicha notekis taqsimlangan [2]. Bunga sabab tabiiy sharoit, qishloq xo‘jalik, sanoat tarmoqlari va aholi joylashuvi bo‘lib hisoblanadi. Inson faoliyati ta‘sirida vujudga kelgan navbatdagi tabiiy-texnogen geotizim sanoat komplekslaridir. Tog‘ va tog‘oldi landshaftlarining sanoat komplekslari tarkibiga paxta tozalash, yengil sanoat, oziq-ovqat ishlab chiqarish, mashinasozlik va metallni qayta ishlash, kimyo hamda qurilish materiallari sanoatlari kiradi. Tog‘oldi landshaftlari sanoat komplekslari uning xom ashyolarini qayta ishlaganligi uchun ham uning hududlari bo‘yicha notekis taqsimlangan [5].

Mustaqillikning dastlabki yillarida sanoat komplekslarini rivojlantirish va xomashyo resurslaridan samarali foydalanish maqsadida hududda ko‘plab qo‘shma korxonalar tashkil etildi. Buning natijasida sanoat komplekslariga tegishli bo‘lgan bir qator muammolar yuzaga keldi. Xususan, sanoat korxonalarining barpo etilishi landshaftlardagi modda va energiya almashinuvi jarayonlarining buzilishiga, ayrim landshaft komponentlarining strukturaviy o‘zgarishlari va son jihatidan qisqarishiga olib keldi. Bundan tashqari, korxonalar chiqindilarining tashlanishi ham landshaftlarning sezilarli o‘zgarishiga sabab bo‘lmoqda. Shu sababli, sanoat komplekslarini barpo etishda va ularning faoliyatini olib borishda ilmiy asoslangan chora-tadbirlarga qat‘iy rioya qilish zarur. So‘nggi 15-20 yil mobaynida antropogen ta‘sir hudud landshaftlariga katta ta‘sir ko‘rsatdi [8]. Tog‘oldi hududlaridan oqib o‘tuvchi soylarning deyarli barcha suvlari sug‘orish maqsadlarida foydalanilishi natijasida bir qator ekologik muammolar kelib chiqmoqda. Farg‘ona vodiysi tog‘oldi landshaftlarida jarliklar, eroziya, suffozion o‘ralar, o‘simlik qoplaminig yo‘qolishi, sho‘rlanishning kuchayishi va sho‘rxoklar hosil bo‘lishi kabi geoeologik jarayonlar kuzatilmoqda. Antropogen ta‘sirning kuchliligi sababli Andijon viloyati tog‘ va tog‘oldi landshaftlari tabiatiga madaniy landshaftlarni vujudga keltirish bilan birga landshaft komponentlarini muhofaza qilish muammolarini ham keltirib chiqarmoqda.

Andijon viloyatidagi tog‘ va tog‘oldi landshaftlarini saqlab qolish tabiatni muhofaza qilish sohasidagi eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bu hududda daraxt va buta

o‘simliklarining yo‘qolib ketishi, ko‘p yillar davomida dehqonchilikning rivojlanishi, shuningdek, chorva hayvonlarini boqishda yaylovlarning tegishli massivlarga ajratilmasligi sel va eroziya jarayonlarining jadal rivojlanishiga olib kelgan [3]. Ushbu jarayonlar natijasida tuproq qatlamining qalin bo‘lmasligi va ba‘zi hollarda butunlay yuvilib ketishi, shuningdek, lyossimon yotqiziqlarning jiddiy eroziyaga uchragani kuzatilmoqda.

XULOSA

Andijon viloyati tog‘ va tog‘oldi landshaftlarining tabiiy holatini saqlab qolish va ekologik muammolarni hal etish nafaqat o‘rmonlar yaratishga, balki turli amaliy va tashkiliy ishlar, agrotexnik, agromeliorativ hamda gidrotexnik tadbirlarni amalga oshirishga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Andijon viloyati tog‘ va tog‘oldi landshaftlarida tabiiy sharoitlarni hisobga olgan holda yaylov chorvachiligini, lalmikor dehqonchilikni, bog‘dorchilik va uzumchilikni rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonda tuproq, o‘simlik va suvning o‘zaro bog‘liqlik xususiyatlarini to‘g‘ri hisobga olish kutilgan natijalarga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдулкасымов А.А. Ландшафтно-типологическое картирование и физико-географическое районирование Ферганской котловины: Дис. ... канд.геог.наук.-Воронеж. 1964.
2. Апарин В.Б., Фирджанов А.Б. Влияние урановорудных районов Ферганской долины на экологическое состояние освоенных территорий. Гезисы докл. Конфер.Урановая геология и урановорудная база Республики Узбекистан. Ташкент, 1996.
3. Alibekov L.A., Nishonov S.A. “Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan ratsional foydalanish” T., “O‘qituvchi”, 1982.
4. Абдуллаев О. Фарғона водийси. Наманган нашрети. 2000.
5. Абдулкасимов А.А. Физико-географические районы Ферганской котловины //Научн.зап.Воронеж. Отд.Геогр.общ.СССР.-Воронеж, 1963.
6. Бабушкин Л.Н. Физико-географические районы // Ферганская долина. – Ташкент, 1954. – Т. И.
7. Мавлянов Г.А. Нурматов О.Н. Четвертичные отложения Центральной Ферганы. Т.: 1972.
8. Мамажонов М. Алиев Х. Андижон географияси (Андижон вилояти табиий ва иқтисодий-ижтимоий географияси) /2022.
9. Хасанов И.А. Фуломов И.Н. Ўзбекистон табиий географияси. Т.: Университет. 2010.